

## JAHOLATGA QARSHI MARIFAT

*Ismatova Gulchehra Abdirafikovna  
Ohangaron shahar Politexnikumi  
Ijtimoiy fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jaholatning salbiy ta'sirlarini kamaytirish va jamiyatda ma'rifatni targ'ib qilish masalalari tahlil qilinadi. Ilm-fan, ta'lim va tarbiyaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ochib beriladi. Shuningdek, tarixiy tajriba va zamonaviy usullardan foydalanish orqali jaholatga qarshi samarali kurash yo'llari yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** jaholat, ma'rifat, ta'lim, ilm-fan, axborot, ijtimoiy taraqqiyot.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayni shu yo'nalishda 8-noyabr kuni Transport vazirligida “Jaholatga qarshi ma'rifat” shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbiri o'tkazildi. Vazirlik markaziy apparati, hududiy transport boshqarmalari hamda tizim tashkilotlari xodimlari ishtirokida bo'lib o'tgan tadbirda Din ishlari bo'yicha qo'mita maslahatchisi Ilhom Ma'rupoval bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyo miqyosida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning tobora avj olishiga zamin yaratayotganligini ta'kidlab o'tdi.

Mana shunday bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni saqlashda ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz qayd etganidek: “Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni, albatta, yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir.

Tadbirda bugungi shiddatli globallashuv sharoitida islom dini qadriyatlari, uning tinchlikparvarlik mohiyati, yoshlarni diniy bag'rikenglik va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularda islom diniga yot radikal qarashlarga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirish va bunda O'zbekiston tajribasi, diniylik va dunyoviylik muvozanatini saqlash yo'lidagi sa'y-harakatlari qatnashchilarga yetkazildi.

Ayni paytda O'zbekistonning “Jaholatga qarshi – ma'rifat” shioriga muvofiq ravishda islom dinining tinchlikparvarlik, bag'rikenglik va ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishga, shu tariqa mamlakat, mintaqa va dunyo miqyosida radikalizm

va ekstremizmga qarshi kurashni kuchaytirish, bu illatlarni tag-tomiri bilan yo‘q qilishga o‘z hissasini qo‘shishi ta’kidlab o‘tildi.

Jaholat jamiyat rivojiga to‘sinq bo‘luvchi eng asosiy omillardan biridir. U insonlarning bilimsizligi, yangiliklardan xabardor emasligi va noto‘g‘ri qarashlarni qabul qilishga moyilligi natijasida vujudga keladi. Ma‘rifat esa insoniyatni yuksak taraqqiyot sari yetaklaydi, aql-idrokni shakllantiradi va jamiyatda barqarorlikni ta‘minlaydi. Ushbu maqolada jaholat va ma‘rifat o‘rtasidagi kurash, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va bu boradagi ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqotda analitik, taqqoslash va statistik usullar qo‘llanildi. Ilmiy manbalar asosida jaholat va ma‘rifat masalalariga doir tahliliy tadqiqotlar o‘tkazildi. Shuningdek, ta‘lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi baholandi.

Barchamizga ma’lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o‘zgarib, insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar kuchayib, dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyatlar tobora avj olmoqda. Mana shunday bir sharoitda barqarorlikni saqlashda ma’naviyat va ma‘rifatga e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Biz ma’naviyat va ma‘rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma’naviyati bor inson Vatanni, albatta, yaxshi ko‘radi. Vijdon, ma’naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir...”

Ma‘rifat — kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmu-asini ham bildiradi. Ma‘rifat ilmu urfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma‘rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma‘rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuq ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi. Ma‘rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma‘rifat — bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma‘rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalgalash oshiriladi.

Bugungi kunda muqaddas islom dinimizning insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etish, “Jaholatga qarshi – ma‘rifat” tamoyili asosida unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni sog‘lom e’tiqod ruhida tarbiyalash yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, hozirgi kunda yoshlar orasida uchrab turayotgan turli oqimlarga bilmasdan qo‘shilib ketish holatlari, hamda Vatanimiz ravnaqiga putur yetkazmoqchi bo‘lib turgan diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari, ularni oldini olish, dinlar o‘rtasida o‘zaro ishonch, turli dinlarga e’tiqod qiluvchi insonlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, teng huquqlik, tinchlik va totuvlikni targ‘ib qilish asosiy maqsadimizdir. Biz yoshlar

ko'plab kitoblar o'qishimiz,ilm olishimiz, dunyoqarashimizni kengaytirishimiz muhim hisoblanadi.Zamon bilan hamnafas bo'lgan holatda dinni mahkam tutishimiz darkor. Bu mas'uliyatni har birimiz his qilishimiz , unga fidokorona harakatda bo'lmoq lozim.

Jaholatga qarshi kurashda assosiy omillardan biri sifatida sifatli ta'lim tizimini yo'nga qo'yish zarurati yuzaga chiqadi. Ammo bu jarayonda an'anaviy va zamonaviy metodlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, jamiyatdagi turli guruhlarning axborot manbalaridan foydalanish imkoniyatlari ham tahlil qilinishi lozim. Internet va raqamli texnologiyalar ma'rifatni oshirishda muhim vosita bo'lsada, u noto'g'ri ma'lumotlar tarqalishiga ham sabab bo'lishi mumkin.

### **Xulosa**

Jaholatga qarshi samarali kurashish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- Ta'lim tizimini innovatsion usullar asosida rivojlantirish;
- Aholining axborot savodxonligini oshirish;
- Ommaviy axborot vositalarining ma'rifiy rolini kuchaytirish;
- Yosh avlodni tanqidiy fikrlashga o'rgatish;
- Ilm-fanni targ'ib qilishga qaratilgan davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash.

Shunday qilib, jaholatga qarshi ma'rifat orqali kurashish nafaqat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, balki jamiyatning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashning eng samarali yo'llaridan biri hisoblanadi.

### **Adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birqalikda barpo etamiz. -T.: Ozbekiston, . 2017
2. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Mualliflar: O. Musurmonova, R. Qo'chiqorova, M. Qarshiboyev. T. : "Ma'naviyat", 2007.
3. Odilov F. Axloqiy ong va ijtimoiy taraqqiyot. «Guliston», 1997,
4. Jo'raev N. Tamaddunga da'vat taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2018.
5. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati (Mas'ul muharrir: Nazarov Q., Qarshiboev M. va b.). –Toshkent: G'afup G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.
6. Haydapov A. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. –Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020.